

## BOLALARNI TARBIYALASH VA ULARGA TA'LIM BERISH BORASIDAGI MAJBURIYATLARNI BAJARMASLIK HUQUQBUZARLIGINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI

Axmadjonova MadinaHamdamboevna  
IIV Akademiyasi 2-o'quv kursi, 216-guruh kursanti

**Annotatsiya:** Maqola bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish majburiyatlarini bajarmaslik huquqbuzarligini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqsad - ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan belgilangan majburiyatlarni bajarmaslik holatlarining huquqiy asoslarini aniqlash, profilaktika inspektorlari faoliyatining samaradorligini tahlil qilish va ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Maqolada 47-modda mazmuni, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks, Konstitutsiya, Oila kodeksi va Ta'lim to'g'risidagi qonun normalari chuqur huquqiy tahlil qilingan, shuningdek Rossiya va Germaniyadagi xorijiy tajriba ilmiy qiyosiy usulda ko'rib chiqilgan. Amaliyotdagi muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha profilaktika inspektorlarining vazifalari, huquqiy, ijtimoiy va psixologik jihatlari kompleks ravishda tahlil qilingan. Maqola profilaktika faoliyatining samaradorligini oshirish va bolalarning huquqlarini himoya qilish yo'nalishida amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.

**Kalit so'zlar.** Bolalarni tarbiyalash, ta'lim majburiyati, huquqbuzarlik, profilaktika inspektori, 47-modda, ma'muriy javobgarlik, ota-onalarning majburiyatlari, ijtimoiy profilaktika, huquqiy tahlil, xorijiy tajriba.

Hozirgi kunda jamiyat taraqqiyoti va davlat barqarorligini ta'minlashda yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, ularga sifatli ta'lim berish masalasi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Globallashuv sharoitida bolalarning ijtimoiylashuvi, ularning huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirishda oila institutining o'rne beqiyosdir.

Shu bilan birga, amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim hollarda ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik holatlari uchramoqda. Bu esa voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar sodir etilishi, ijtimoiy deviatsiyaning kuchayishiga sabab bo'lmoqda.

Mazkur munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, Ta'lim to'g'risidagi Qonun hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks muhim ahamiyatga ega.

Bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish majburiyatlari davlatning konstitutsiyaviy va huquqiy asoslaridan kelib chiqib, ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar uchun huquqiy majburiyat sifatida belgilangan. Konstitutsiyaning 77-moddasida "Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta'lim olishini, sog'lom, to'laqonli va har

tomonlama kamol topishini ta'minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag'batlantiradi" deb belgilab qo'yilgan.

Ya'ni bolaning oiladagi huquqlari ta'minlanishida, odob-axloq normalari asosida munosib tarbiya berilishida ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga majburiyat belgilaydi. Shuningdek Oila kodeksining 96-moddasi "Ota-onaning voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majburiyati" da, Ota-ona voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berishi shartligi, voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarmagan ota (ona)dan sudning hal qiluv qaroriga yoki sud buyrug'iga asosan aliment undirilishi, voyaga yetmagan bolalarga aliment to'lash haqida ota-ona o'rtasida kelishuv bo'lmaganda yoki aliment ixtiyoriy ravishda to'lanmaganda va ota-onadan birortasi ham aliment undirish to'g'risida sudga da'vo yoxud ariza bilan murojaat qilmagan hollarda, vasiylik va homiylik organlari, shuningdek o'n to'rt yoshga to'lgan bola voyaga yetmagan bolaning ta'minoti uchun ota yoki onadan qonunda belgilangan miqdorda aliment undirish to'g'risida da'vo qo'zg'atishga haqli ekanligi qayd etib qo'yilgan.

Ota-onalarning farzandlarini moddiy va ma'naviy jihatdan ta'minlash, ularning ta'lim olish huquqlariga rioya qilishlari lozimligini ko'rsatadi. Ta'lim to'g'risidagi qonun esa har bir bola uchun majburiy umumiy o'rta ta'limni ta'minlash zarurligini belgilovchi huquqiy asosdir.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 47-moddasi (Bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik) ushbu turdagi huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan. Unga ko'ra, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik, shu jumladan voyaga yetmagan bolalarning ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishiga olib kelishi — bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Xuddi shunday huquqbuzarliklar ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, — bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan o'z bolasini qonunga xilof ravishda diniy ta'lim olishga jalb etish, — bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, — bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi. Bolalarning majburiy umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishiga ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan to'sqinlik qilish — bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, — bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravaridan yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'lishi ko'rsatilgan.

Yuridik tahlil ko'rsatadiki, mazkur huquqbuzarlikning asosiy xususiyati shundaki, u bolaning huquqbuzarlikka moyilligi bilan bog'liq, ya'ni ota-onalarning majburiyatlarni bajarishini bolaning ijtimoiy va huquqiy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, profilaktika inspektorlari ushbu huquqbuzarlikning oldini olishda asosiy subekt sifatida faoliyat yuritishi kerak, chunki ular oilaviy va ijtimoiy muhitni monitoring qilib, bola huquqlarini ta'minlashdagi xavf omillarini aniqlaydilar.

Xorijiy tajriba ham ushbu nuqtai nazarni qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, Rossiyada bola huquqlarini himoya qilish tizimida profilaktika inspektorlari va maktab psixologlari bilan birgalikda multidissiplinar guruhlar shakllantirilgan bo'lib, ular ota-onalarning majburiyatlarini bajarishini nazorat qiladilar va bola huquqbuzarlik ehtimolini baholaydilar. Germaniyada esa Jugendamt tuzilmasi ota-onalar va bola bilan ishlash, ijtimoiy va psixologik yordam ko'rsatish hamda bola huquqlari buzilishining oldini olishda yagona integratsiyalashgan tizimni tashkil qiladi. Bu tajribalar profilaktika inspektorlari faoliyatini amaliyotda huquqiy, ijtimoiy va psixologik jihatdan kompleks ravishda olib borishning samaradorligini ko'rsatadi.

Amaliyotda esa profilaktika inspektorlari faoliyatida bir qator muammolar uchraydi. Birinchidan, bolaning huquqbuzarlikka moyilligini erta aniqlash uchun ijtimoiy tahlil va oilaviy monitoring yetarli darajada amalga oshirilmaydi. Ko'p hollarda ota-onalarning huquqiy ongi pastligi, kambag'allik yoki ijtimoiy himoyaga muhtojlik profilaktika inspektorlari uchun qiyinchilik tug'diradi. Ikkinchidan, maktablar, mahalla xizmati va ijtimoiy tashkilotlar bilan hamkorlikning yetarli darajada tashkil etilmaganligi, ma'lumot almashinuvining sustligi profilaktika tizimining samaradorligini pasaytiradi. Uchinchidan, ko'p hollarda inspektorlar profilaktikani faqat huquqiy nuqtai nazardan amalga oshiradi, ijtimoiy va psixologik jihatlarni hisobga olmaydi.

Shu muammolarni bartaraf etish uchun profilaktika inspektorlari vazifalari aniq va tizimli bo'lishi lozim. Bunda birinchi navbatda bolalarning huquqbuzarlikka moyil bo'lishi mumkin bo'lgan holatlarni erta aniqlash, monitoring qilish va profilaktik choralar rejasini ishlab chiqish lozim. Ikkinchi, ota-onalar va vasiylar bilan huquqiy, tarbiyaviy va psixologik maslahatlar olib borish, ularning majburiyatlari va salbiy oqibatlar haqida axborot berish muhimdir. Uchinchisi, maktab, mahalla va ijtimoiy xizmatlar bilan integratsiyalashgan hamkorlikni yo'lga qo'yish, ma'lumot almashinuvini ta'minlash, kompleks profilaktik tadbirlar tashkil qilish zarur. To'rtinchi, bola va oila psixologik va ijtimoiy holatini baholash hamda zarur yordam mexanizmlarini ishga solish profilaktika inspektorlarining asosiy vazifasiga kirishi lozim.

Ilmiy-nazariy tahlil ko'rsatadiki, profilaktika inspektorlari faoliyati nafaqat huquqiy nazorat, balki ijtimoiy va psixologik jihatlarni ham o'z ichiga olgan integratsiyalashgan profilaktika tizimi bo'lishi kerak. Bu esa bolalarning huquqbuzarlik sodir etish xavfini sezilarli darajada kamaytiradi va ota-onalarning majburiyatlarini bajarishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, xorijiy tajriba misollari, masalan Rossiya va Germaniyadagi multidissiplinar yondashuvlar, O'zbekiston amaliyotida ham profilaktika inspektorlari faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini oshirishda qo'llanilishi mumkin.

Natijada, profilaktika inspektorlarining vazifalari huquqiy, ijtimoiy va psixologik jihatlarni kompleks tarzda bajarishi, bola va oila bilan tizimli ishlash, maktab va ijtimoiy

xizmatlar bilan integratsiyalashgan hamkorlikni yo'lga qo'yish va erta profilaktik tadbirlarni amalga oshirish orqali ota-onalarning majburiyatlarini bajarishini ta'minlaydi hamda bolalar huquqlari buzilishining oldini oladi. Bu yondashuv huquqiy mexanizmlar va ilmiy asoslangan metodikani birlashtirib, profilaktika faoliyatini zamonaviy talablar darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 47-moddasi voyaga yetmaganlarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish sohasida ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning majburiyatlarini belgilash hamda ushbu majburiyatlarni bajarmaslik uchun ma'muriy javobgarlikni nazarda tutadi. Mazkur norma bolalar huquqlarini ta'minlashga qaratilgan milliy qonunchilik tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ushbu moddani tahlil qilishda uning har bir qismi alohida yuridik tarkib sifatida ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiq.

47-moddaning birinchi qismida ota-onalar tomonidan bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish majburiyatlarini bajarmaslik uchun javobgarlik belgilangan.

Mazkur normaning ob'ekti — voyaga yetmaganlarning ta'lim olish va to'g'ri tarbiyalanish huquqlari bo'lib, bu huquqlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida (ta'lim olish huquqi) va 64-moddasida (ota-onalarning farzand tarbiyasidagi majburiyatlari) mustahkamlangan.

Ob'ektiv tomon harakatsizlik (majburiyatni bajarmaslik) yoki noto'g'ri harakatlarda ifodalanadi. Bu, masalan, bolani nazoratsiz qoldirish, uning ta'lim jarayonida ishtirok etmaslik, ijtimoiy xulq-atvorini shakllantirishga e'tibor bermaslik kabi holatlarda namoyon bo'ladi.

Sub'ekt — ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bo'lib, bu tushuncha Oila kodeksida ham keng yoritilgan.

Sub'ektiv tomon asosan ehtiyotsizlik shaklida namoyon bo'ladi, ya'ni shaxs o'z majburiyatlarini bajarmaslik oqibatlarini oldindan ko'ra bilmaydi yoki yetarlicha baholamaydi.

Moddaning ikkinchi qismda huquqbuzarlikning bir yil davomida takroran sodir etilishi uchun kuchaytirilgan javobgarlik nazarda tutilgan.

Bu yerda ma'muriy takroriylik instituti qo'llaniladi. Ushbu institut Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning umumiy qismi normalari bilan tartibga solinadi, ya'ni:

- shaxs avval javobgarlikka tortilgan bo'lishi;
- bir yil ichida yana shu kabi huquqbuzarlikni sodir etishi bilan belgilanadi.

Bu norma profilaktik ta'sirni kuchaytirishga xizmat qiladi hamda huquqbuzarliklarning barqaror tus olishining oldini oladi.

47-moddaning 3-qismida noqonuniy diniy ta'limga jalb etishga e'tibor qaratiladi.

Ushbu qismda bolani qonunga xilof ravishda diniy ta'limga jalb qilish alohida huquqbuzarlik sifatida belgilangan.

Mazkur norma Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi Qonun bilan uzviy bog'liq bo'lib, unda voyaga yetmaganlarning diniy ta'limi faqat belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkinligi ko'rsatilgan.

Ob'ektiv tomon:

- rasmiy ro'yxatdan o'tmagan ta'lim muassasalariga jalb qilish;
- yoki belgilangan yosh va tartiblarga rioya etmaslikda namoyon bo'ladi.

Sub'ektiv tomon — to'g'ridan-to'g'ri qasd, chunki ota-ona o'z harakatining qonunga zid ekanligini anglagan holda amalga oshiradi.

Bu normaning kiritilishi jamiyatda radikal g'oyalarning tarqalishining oldini olish, shuningdek, bolalarning sog'lom dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan.

47-moddaning 4-qismi, og'irlashtiruvchi holat sifatida baholanadi.

To'rtinchi qismda uchinchi qismda nazarda tutilgan huquqbuzarlikning takroran sodir etilishi uchun yanada og'ir sanksiyalar belgilangan.

Bu yerda:

- alternativ sanksiya (jarima yoki ma'muriy qamoq);
- huquqbuzarlikning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqoriligi namoyon bo'ladi.

Ma'muriy qamoq qo'llanilishi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning umumiy qoidalari asosida amalga oshiriladi va bu jazo chorasi eng qat'iy ma'muriy ta'sir choralardan biri hisoblanadi.

Mazkur moddaning 5-qismida ta'lim olishga to'sqinlik qilishga e'tibor qaratiladi.

Ushbu qism bolalarning majburiy ta'lim olish huquqini himoya qilishga qaratilgan.

Bu huquq Ta'lim to'g'risidagi Qonunda mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra umumiy o'rta ta'lim majburiy hisoblanadi.

Ob'ektiv tomon:

- bolani maktabga yubormaslik;
- ta'lim muassasasidan chiqarib olish;
- ta'lim jarayoniga ongli ravishda to'sqinlik qilish.

Bu norma bolalarni ijtimoiy hayotdan chetlashib qolishining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

47 moddaning 6-qismi, ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin ham huquqbuzarlikning takroriy sodir etilishiga e'tibor qaratiladi.

Oltinchi qismda ushbu huquqbuzarlikning takroran sodir etilishi uchun kuchaytirilgan javobgarlik belgilangan.

Bu holatda:

- katta miqdorda jarima;
- yoki ma'muriy qamoq qo'llanilishi mumkin.

Bu norma orqali davlat bolaning ta'lim olish huquqini mutlaq himoya ostiga oladi va ota-onalarning bu boradagi mas'uliyatini maksimal darajada oshiradi.

MJtKning 47-moddasining tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur norma:

□ bolalar huquqlarini ta'minlashga qaratilgan kompleks huquqiy mexanizm hisoblanadi;

- ota-onalarning huquqiy maqomini aniq belgilaydi;
- profilaktika va jazo funksiyalarini o'zaro uyg'unlashtirgan.
- Shuningdek, moddada:
- differentsiyalangan sanksiyalar tizimi;
- takroriylik instituti;
- ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab javobgarlikni kuchaytirish mexanizmi mavjud.

Ilmiy nuqtai nazardan, mazkur normani takomillashtirish uchun:

- profilaktika inspektorlarining vakolatlarini kengaytirish;
- idoralararo hamkorlikni kuchaytirish;

□ ota-onalarning huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan dasturlarni joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Jamiyatda mazkur yoʻnalishda mavjud muammolar sifatida quyidagilar qayd etiladi:

- profilaktika ishlarining formal tus olishi;
- idoralararo hamkorlikning yetarli emasligi;
- ota-onalarning huquqiy ongi pastligi;
- ijtimoiy xizmatlar institutining zaifligi.

Bolalarni tarbiyalash va ularga taʼlim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik huquqbuzarligining oldini olish va sodir etilishiga yoʻl qoʻymaslik maqsadida quyidagilar vafalar taklif etiladi:

1. Profilaktika inspektorlarining vakolatlarini kengaytirish;
2. “xavf guruhi” oilalar bilan ishlashning yagona reestrini joriy etish;
3. ota-onalar uchun majburiy huquqiy-maʼrifiy dasturlar;
4. maktab-oila-IIO hamkorligining raqamli platformasini yaratish;
5. ijtimoiy va psixologik xizmatlarni institutsional kuchaytirish.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bolalarni tarbiyalash va ularga taʼlim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik huquqbuzarligi nafaqat ota-onalarning shaxsiy masʼuliyati, balki davlat va jamiyat uchun muhim ijtimoiy va huquqiy masala hisoblanadi. Yuridik tahlillar, Konstitutsiya, Oila kodeksi va Taʼlim toʻgʻrisidagi qonun normalariga tayangan holda, mazkur huquqbuzarlikning mazmuni va oqibatlari aniqlangan, shuningdek, profilaktika inspektorlarining bu sohadagi vazifalari ilmiy asosda tahlil qilingan.

Ilmiy-nazariy qiyoslar va xorijiy tajribalar (Rossiya va Germaniya misollari) koʻrsatdiki, profilaktika faoliyati nafaqat huquqiy nazoratga, balki ijtimoiy va psixologik jihatlarga ham yoʻnaltirilgan boʻlganda samarali boʻladi. Amaliyotda esa profilaktika inspektorlari faoliyatida maʼlum cheklovlar, masalan, ota-onalarning huquqiy ongining pastligi, maktab va ijtimoiy xizmatlar bilan hamkorlikning yetarli darajada yoʻlga qoʻyilmagani, erta profilaktik tadbirlarni amalga oshirishdagi qiyinchiliklar kuzatiladi.

Shuningdek, huquqbuzarlikning ildiz sabablarini erta aniqlash va bartaraf etish profilaktika samaradorligini oshirishda asosiy ahamiyatga ega. Shu bois profilaktika inspektorlari vazifalari aniq va integratsiyalashgan tizimda bajarilishi, bola va oila bilan muntazam muloqot, maktab va ijtimoiy xizmatlar bilan hamkorlik, psixologik va ijtimoiy yordam mexanizmlarini ishga solish orqali huquqbuzarlikning oldi olingan holda samarali profilaktika taʼminlanishi mumkin.

Natijada, bolalarni tarbiyalash va taʼlim berish majburiyatlarini bajarmaslik huquqbuzarligi masalasi faqat huquqiy jihatdan emas, balki ijtimoiy va pedagogik nuqtai nazardan ham kompleks tahlil qilinishi kerak. Bu sohada profilaktika tizimini takomillashtirish, ota-onalarning huquqiy ongini oshirish, integratsiyalashgan profilaktika mexanizmlarini joriy etish bolalarning huquqlarini himoya qilish va huquqbuzarliklarning oldini olishda samarali yoʻl hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025 yil 26 dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/8834>
2. Таштемиров, А. А. "Вояга етмаганлар ўртасида ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўйича ички ишлар органларининг ҳамкорлиги." O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 2.25 (2023): 32-40.
3. Таштемиров, А. А. "Ҳуқуқбузарлик содир этилишининг сабаблари ва шароитларини аниқлаш ва баргараф этиш фаолиятини такомиллаштириш йўналишлари." So 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi 6.12 (2023): 454-461.
4. Таштемиров, А., and X. Юлдошев. "Ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширишда оммавий ахборот воситалари ва блогерлар билан ҳамкорликнинг ўзига хос жиҳатлари." Академические исследования в современной науке 3.17 (2024): 55-61.
5. Таштемиров, А. А. "Ахборот технологиялари орқали содир этиладиган жиноятларни фoш этишнинг ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари." World of Science 6.6 (2023): 169-175.
6. Тоштемиров, А. "Киберфирибгарлик билан боғлиқ жиноятларнинг пайдо булиш ва ривожланиш тарихи." Общество и инновации 3 (2022): 11.
7. Таштемиров, А. А., and С. А. Калауов. "Йўл ҳаракати хавфсизлиги ривожланиш концепциясининг истиқболлари ва киберхавфсизлигини таъминлаш зарурати." barqarorlik va etakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali 2.8 (2022): 245-250.
8. Таштемиров, А. А. "Зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тушунчаси ва ўзига хослиги." Innovative achievements in science 2025 (2024): 82-90.
9. Таштемиров А. А., Комилов А. М. Ў. Одам савдоси жиноятига қарши курашишни такомиллаштиришга оид айрим мулоҳазалар //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 7. – С. 135-138.
10. Tashtemirov, A., and A. Po'latov. "Ayollar jinoyatchiligining oldini olish chora-tadbirlari." Инновационные исследования в науке 3.1 (2024): 75-78.
11. Таштемиров, А. А. "Ижтимоий профилактика объекти сифатида алкоголизм таъсиридаги шахслар билан ишлаш фаолиятини такомиллаштириш." So 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi 6.12 (2023): 552-558.
12. Таштемиров, А. "Кибержиноятчилик ва унинг ўзига хос шаклланиш даврлари." Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования 2 (2023): 133-139.
13. Таштемиров, А. А. "Техник криминалистик экспертиза–ахборот технологиялари орқали содир этиладиган жиноятларни фoш этишнинг асосий

омили сифатида." O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 2.21 (2023): 12-19.

14. Таштемиров, А., and Ж. Курчибоев. "Вояга етмаганлар ҳуқуқбузарлигининг профилактикасида таълим ва тарбиянинг ўрни ва аҳамияти." Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук 3.12 (2023): 130-135.

15. Таштемиров А. А. Ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарликни фoш этишда тезкор ходимларнинг терговчи ва суриштирувчилар билан ҳамкорлигининг айрим жиҳатлари //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 156-164.

16. Таштемиров, А. А. "Психологическая поддержка деятельности инспекторов профилактики в работе с лицами, осужденные к наказанию исправительные работы." International scientific research conference. Vol. 3. No. 28. 2024.

17. Таштемиров, А. А. "Фирибгарликка имкон берувчи шарт-шароитлар ва ушбу турдаги жиноятларга тайинланадиган жазо тизимининг ўзига хослиги." Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук 2.10 (2022): 42-48.

18. Tashtemirov A. Baxtiyorov S. Profilaktika inspektorining jinoyat ishlar bo 'yicha sudlar bilan hamkorligining o 'ziga xos xususiyatlari //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – С. 38-42.

19. Tashtemirov A. Usmonova Y. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan yoshlar bilan ishlash faoliyatining o 'ziga xos xususiyatlari //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 12. – С. 51-52.

20. Tashtemirov, A. "Usmonova Y. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar bo'yicha ishlash faoliyatini huquqiy ta'minlash." (2024): 59-61.

21. Таштемиров, А., and А. Хўжамбердиев. "Оила-турмуш муносабатлари доирасидаги ҳуқуқбузарликларнинг турлари ва таснифи." Журнал академических исследований нового Узбекистана 1.6 (2024): 4-12.

22. Aliqulovich T. A. Atxam o'g'li MX Profilaktika inspektorining ommaviy tadbirlarni o'tkazish jarayonidagi ishtirokining oziga xos xususiyatlari //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – Т. 2. – №. 24. – С. 230-235.